

**ZULFIYA MO'MINOVA SHE'RLARIDA LEKSIK-SEMANTIK O'ZIGA
XOSLIK**

Mirzayeva Surayyo Mahmasharif qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: surayyomirzayeva92@gmail.com

Bekmahmadova Yulduzxon Murodullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya Mo'minova ijodining leksik-semantik va badiiy-estetik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shoira she'riyatida vatan, ona va ayol mavzularining mazmuniy uyg'unligi yetakchi badiiy konsept sifatida ochib beriladi. "Vatan" tushunchasining "ona" obrazi bilan ramziy birlashuvi milliy ong va ruhiy yaqinlik timsoli sifatida asoslanadi. Ayolning sabr-toqati va ichki kechinmalari "oq ro'mol", "gul", "dasht" kabi badiiy birliklar orqali ifodalanishi ko'rsatib beriladi. Tahlil natijasida Zulfiya Mo'minova she'riyati milliy adabiyotda ayol va vatan timsolini yaxlit estetik qadriyat sifatida talqin etuvchi badiiy hodisa ekanligi xulosalanadi

Kalit so'zlar: Zulfiya Mo'minova ijodi, ayol obrazi, ona timsoli, vatan mavzusi, milliy qadriyatlar, leksik-semantik tahlil, badiiy ramz, metafora, estetik uyg'unlik.

Annotation: This article scientifically analyzes the lexical-semantic and artistic-aesthetic features of Zulfiya Muminova's work. The semantic harmony of the themes of homeland, mother and woman in the poet's poetry is revealed as a leading artistic concept. The symbolic union of the concept of "homeland" with the image of "mother" is based on the national consciousness and spiritual closeness. It is shown that the patience and inner experiences of a woman are expressed through such artistic units as "white shawl", "flower", "steppe". As a result of the analysis, it is concluded that Zulfiya Muminova's poetry is an artistic phenomenon that interprets the image of a woman and homeland as a holistic aesthetic value in national literature.

Keywords: Zulfiya Muminova's work, image of a woman, image of mother, theme of homeland, national values, lexical-semantic analysis, artistic symbol, metaphor, aesthetic harmony.

Аннотация: В данной статье научно анализируются лексико-семантические и художественно-эстетические особенности творчества Зульфийи Муминовой.

Выявляется ведущая художественная концепция семантической гармонии тем родины, матери и женщины в поэзии поэтессы. Символическое единство понятия «родина» с образом «матери» основано на национальном самосознании и духовной близости. Показано, что терпение и внутренние переживания женщины выражаются через такие художественные единицы, как «белая шаль», «цветок», «степь». В результате анализа делается вывод, что поэзия Зульфийи Муминовой является художественным феноменом, интерпретирующим образ женщины и родины как целостную эстетическую ценность в национальной литературе.

Ключевые слова: творчество Зульфийи Муминовой, образ женщины, образ матери, тема родины, национальные ценности, лексико-семантический анализ, художественный символ, метафора, эстетическая гармония.

Kirish. Zulfiya Mo‘minova she’rlari mohiyatan milliy o‘zlikni anglashga, urf-odat va an’anaga hurmatni qadrlashga hamda bag‘rikenglik kabi tushunchalarni chin ma’noda targ‘ib etishga xizmat qiladi. She’riyat insonlarda kelajakka ishonch va yashashdan minnatdorchilik hissini mustahkamlashga qaratilgan. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, albatta, lirika orqali aks etadi. Shu bois, she’riyatning asosiy tamoyillari ham shular bilan belgilanadi. Bugungi adabiyotda milliy ruh tamoyili yetakchi o‘rin tutmoqda.

Zulfiya Mo‘minova ijodi milliy adabiyotimizda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning she’rlari asosan vatan, ona, ayol, muhabbat va insoniy qadriyatlar mavzulariga bag‘ishlangan. Shoiraning ijodida bu mavzular nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ularni, balki milliy ruhni, xalqning urf-odat va an’analarini ham aks ettiradi. Zulfiya Mo‘minova muhabbat haqida yozadimi, inson kechinmalari to‘g‘risidami uning ko‘z o‘ngida Vatan gavdalanadi:

Vatan desam onam keladi,

Oq ro‘mollar o‘rab boshiga.

Men onamdan qarzdor kabi,

Qarzdorman shu so‘z oldida [4].

Ushbu parchadagi “*Oq ro‘mollar o‘ragan ayol*” nafaqat lirik qahramonning, balki, butun o‘zbek ayolining, o‘zbek onasining timsoliga ishoradir [1].

Leksik tahlil: *Vatan* — leksik birligi she’rda ko‘chma ma’noda qo‘llangan. *Onam* — konkret, yaqinlik bildiruvchi so‘z, “*vatan*” tushunchasini shaxsiylashtiradi. *Oq ro‘mol* — milliy-madaniy leksika, poklik va ona timsolini ifodalaydi.

Semantik tahlil : “*Vatan*” va “*ona*” o‘rtasida metaforik tenglik yuzaga kelgan.

“*Oq ro‘mol*” obrazi orqali milliylik, muqaddaslik va ona siymosi ma‘nosi kuchaytirilgan.

Ayolga gul bering shunday gullarki,

Erkak bardoshidan ungan gullarni,

Ayolga gul bering shunday gullarki,

Erkak ko‘z yoshidan ungan gular [2].

Ayolga beriladigan muhabbat va e‘tibor yuzaki emas, balki fidoyilik, sabr va ichki kechinmalar bilan sug‘orilgan bo‘lishi lozim. Ayolga atalgan “*gul*” — bu faqatgina giyoh emas, balki hurmat, mehr va mas‘uliyat ramzi hisoblanadi.

Leksik tahlil: *Gul* – sovg‘a, mehr ramzi. Shunday gullarki – yurakdan chiqqan, samimiy his bilan bog‘liq gullar. Erkek bardoshidan ungan gullar – gul metafora sifatida, erkakning chidamliligi va sabrining ramzi, erkakning ichki his-tuyg‘ulari, samimiy sevgisi ifodalangan.

Semantik tahlil : Badiiy tashbeh: Gul orqali ayolga beriladigan mehr va samimiyat ifodalanadi. Ramziy: gul yurakdan chiqqan his-tuyg‘ular ramzi bo‘lib kelgan. Estetik uyg‘unlik: ichki his-tuyg‘ular va tashqi ramz uyg‘unligi o‘quvchini hissiy jihatdan ta’sir qiladi.

Baloyi ishq dashti biyobonida.

Bag‘ri tilinmagan ayol bormikin?

Taqdirning beshafqat toshbo‘ronida,

Yuragi sinmagan ayol bormikin? [3].

Leksik tahlil: Baloyi ishq – “*baloyi*” – katta, og‘ir, sinov ma‘nosini bildiradi; “*ishq*” – muhabbat, his-tuyg‘ularni ifodalab kelgan. *Dashti biyobonida* – keng, bo‘sh va qiyin yo‘l tashbeh sifatida ishlatilgan. *Bag‘ri tilinmagan ayol* – “*tilinmagan*” – ko‘ngli og‘rimagan, sabr qilgan ma‘nolarida kelgan, “*bag‘ri*” – qalb, ichki dunyo. Taqdirning beshafqat toshbo‘roni – “*beshafqat*” – shafqatsiz, “*toshbo‘ron*” – qattiq sinov, qiyinchilik. *Yuragi sinmagan ayol* – sinov va qiyinchiliklarga qaramay, qalbi mustahkam ayol.

Semantik tahlil: Badiiy tashbeh: dasht va toshbo‘ron orqali hayotiy sinovlar tasvirlangan. Ruhiiy holat: she‘rda sabr, chidamlilik, ayolning qat‘iyatliliigi asosiy o‘rinda turibdi. Estetik uyg‘unlik: inson ruhiyati va tabiat qiyinchiligi uyg‘unlashadi.

Ayolni, vatanni sevgan nasllar,

Asrlar qa'ridan etadi ogoh,

Ayolni aldamoq – onani sotmoq,

Vatani sotmoqdek eng og‘ir gunoh [3].

Leksik tahlil: Ayolni, vatanni sevgan nasllar – “ayol” va “vatan” – sevgi va fidoyilik ramzi; “nasllar” – avlod, tarixiy davomiylikni bildiradi. Asrlar qa‘ridan etadi ogoh – “asrlar qa‘ri” – uzoq vaqt, tarix hisoblanadi, “ogoh” – xabardor, donolikni bildiradi. Ayolni aldamoq – onani sotmoq – qadriyatlarni buzish, insoniy va axloqiy xatolik deb qaralgan. Vatani sotmoqdek eng og‘ir gunoh – eng katta gunoh deb tasvirlangan, “aldamoq”, “sotmoq”, “og‘ir gunoh” – qadriyatlarni himoya qilishga urg‘u beradi.

Semantik tahlil: Ayol va ona – milliy va insoniy qadriyat ramzi sifatida ishlatiladi. Ruhiiy holat: She‘rda ogohlik, milliy mas‘uliyat, qadriyatlarni hurmat qilish hissi markaziy o‘rinda turibdi. Estetik uyg‘unlik: insoniy qadriyat va milliy sevgi uyg‘unligi o‘quvchini hissiy jihatdan ta‘sir qiladi.

Siniq nigohingda, siniq kulgingda

Umidga o‘ralgan zorlar yig‘laydi.

Ayni saratonda, yarim ko‘nglingda

Bitta-bitta yoqqan qorlar yig‘laydi. [4].

Lirik tahlil: Birinchi misrada “siniq” – zaif, shikastlangan ,nigoh va kulgi esa insoniy hislar ramzi, “zorlar” – azob chekayotganlar, “umidga o‘ralgan” – orzu, intilish bilan bog‘liq ya‘ni umid qiluvchi insonlar nazarda tutilgan, saraton fasli – qiyinchilik, sovuq, tashvish ramzi sifatida ishlatilgan, yarim ko‘ngil – to‘liq ochilmagan his, ichki ehtiros va og‘riq ,qor – tabiatning ramzi, yig‘lash – hissiyotning tashqi ifodasi.

Semantik tahlil: Ruhiiy holat: she‘rda umid va tashvish, ichki og‘riq va noaniqlik hissi markaziy o‘rinda Ramziy: siniq nigoh va kulgi ichki jarohat va hissiy zaiflikni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Mo‘minova she‘riyati mazmun va shakl uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Shoira ijodida vatan, ona va ayol obrazlari bir-biridan ajralmas yaxlit tushuncha sifatida talqin etilib, milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni ulug‘lash g‘oyasiga xizmat qiladi. Uning she‘rlarida qo‘llangan leksik birliklar oddiy so‘zlar bo‘lishiga qaramay, chuqur semantik yuklama kasb etib, ramziy va ko‘chma ma‘nolar orqali badiiy ta‘sir kuchini oshiradi. Zulfiya Mo‘minova ayol obrazini sabr, fidoyilik va ichki qudrat timsoli sifatida yoritib, jamiyatdagi axloqiy mas‘uliyat va insoniy burch masalalarini ilgari suradi. Metafora va tashbehtar orqali hayotiy sinovlar, ruhiy kechinmalar va umid tuyg‘usi badiiy-estetik uyg‘unlikda ifodalanadi. Natijada shoira she‘riyati o‘quvchini nafaqat hissiy jihatdan ta‘sirlantiradi, balki uni milliy qadriyatlarga hurmat, ayol va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalovchi muhim badiiy manba sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Abdujabborova X, Kozimova Z. The folklore tradition in the poetess Zulfiya Muminova's poetry // Ilmiy maqola, 2021.
2. Normamatova N. Zulfiya Mo‘minova she‘riyatining milliy-madaniy xususiyatlari // Journal of New Century Innovations, 2022.
3. Zulfiya Mo‘minova. Yonayotgan ayol. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.
4. Zulfiya Mo‘minova. Qudratli yurtimga. – Toshkent, 1997.